

## TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINI IXTIYORIY TUGATISHDA QONUNCHILIK HUJJATLARIGA MUVOFIQ MA'MURIY HUJJATLARNI SUDGACHA KO'RIB CHIQISH.

**Nasullaev Mubin Nutfullaevich**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi  
huzuridagi yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va  
malakasini oshirish instituti  
dotsenti, yuridik fanlari nomzodi.

**Annotatsiya:** Tadbirkorlik sub'ektlarini ixtiyoriy tugatish bilan bog'liq munosabatlar qonunchilikda aniq tartibga solingan va ma'muriy jarayonlarning bir qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ixtiyoriy tugatish yuridik va ma'muriy munosabatlarning kompleks tizimi hisoblanadi. Maqolada ixtiyoriy tugatishda sudgacha ma'muriy hujjatlarni ko'rib chiqish instituti — ya'ni apellyatsiya komissiyalari faoliyati, ahamiyati, qonunchilik asoslari, ma'muriy hujjatlarni ko'rib chiqish tartibi, ilmiy yondashuv, xorijiy tajriba va amaliyotdagi muammolar va yechimlari yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Tadbirkorlik, ixtiyoriy tugatish, ma'muriy hujjat, sudgacha shikoyat, ma'muriy tartib-taomil, apellyatsiya komissiyasi, ma'muriy sud.

**Насуллаев Мубин Нутфуллаевич**

кандидат юридических наук, доцент  
Института переподготовки и повышения  
квалификации юридических кадров при  
Министерство юстиции Республики Узбекистан.

**Аннотация:** Отношения, связанные с добровольной ликвидацией хозяйствующих субъектов, четко урегулированы в законодательстве и отражены в административных процессах. Добровольная ликвидация представляет собой сложную систему правовых и административных отношений. В статье рассматриваются деятельность, значение, законодательные основы, порядок

рассмотрения административных документов при добровольной ликвидации, то есть апелляционные комиссии, проблемы и пути их решения на практике.

**Ключевые слова:** Предпринимательство, добровольная ликвидация, административный документ, досудебное обжалование, административная процедура, апелляционная комиссия, административный суд,

**Nasullaev Mubin Nutfullaevich**

Candidate of Legal Sciences,

Associate Professor of the Training Institute

for lawyers under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan.

**Abstract:** Relationships related to the voluntary liquidation of business entities are clearly regulated by law and reflected in administrative proceedings. Voluntary liquidation represents a complex system of legal and administrative relationships. This article examines the activities, significance, legislative framework, and procedures for reviewing administrative documents during voluntary liquidation, including appeals commissions, as well as the challenges and solutions they present in practice.

**Keywords:** Entrepreneurship, voluntary liquidation, administrative document, pre-trial appeal, administrative procedure, appeals commission, administrative court.

O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini erkin amalga oshirish va uning huquqiy kafolatlarini ta‘minlash davlat siyosatida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Bu jarayonning muhim qismi tadbirkorlik sub‘ektlarini ixtiyoriy tugatish mexanizmini takomillashtirishdir. Ixtiyoriy tugatish faqat iqtisodiy yoki tashkiliy qaror emas, balki u yuridik va ma‘muriy munosabatlarning kompleks tizimi hisoblanadi. Shu bois tugatish jarayonida davlat organlari tomonidan qabul qilingan ma‘muriy hujjatlar tadbirkorlar uchun huquqiy oqibatlarga olib keladi.

Bunday hujjatlar ustidan shikoyat qilishning sudgacha bosqichi – apellyatsiya komissiyalari faoliyati tadbirkorlik muhitining shaffofligi va ishonchliligini ta'minlaydigan muhim institut sifatida e'tirof etiladi.

Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni tugatish bilan bog'liq munosabatlar qonunchilikda aniq tartibga solingan. Bu esa, iqtisodiy islohotlarning chuqurlashishi tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatida huquqiy aniqlik va shaffoflikni ta'minlashni taqozo etadi.

Iqtisodiy erkinlik sharoitida tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini ixtiyoriy tugatish huquqi muhim konstitutsiyaviy kafolatlardan biri hisoblanadi. Biroq, tugatish jarayonida davlat organlari tomonidan qabul qilinadigan ma'muriy hujjatlar ayrim hollarda tadbirkorning huquq va manfaatlarini cheklashi yoki poymol qilishi mumkin. Shuning uchun sudgacha shikoyat qilish instituti ya'ni, apellyatsiya komissiyalari faoliyati bu sohadagi adolatlilik va qonuniylikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Qonunchilikdagi huquqiy asoslar bo'lib hisoblanadigan bir qator qonunlar shu jumladan, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni<sup>1</sup>ga ko'ra, davlat organlari qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat berish huquqi tadbirkorlarga kafolatlangan. Shuningdek, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni<sup>2</sup> ma'muriy hujjatlarni qabul qilish va ularni sudgacha ko'rib chiqish tartibini belgilaydi.

Adliya vazirligi huzurida Apellyatsiya komissiyasi tashkil etilgan bo'lib, u tadbirkorlarning davlat organlari qarorlaridan norozilik bildirishlari bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqadi.

Bu institut sud yuklamasini kamaytiradi va tadbirkorlik sub'ektlariga nisbatan qabul qilingan ma'muriy qarorlarni tezkor ravishda qayta ko'rib chiqish imkonini yaratadi.

Tadbirkorlik sub'ektlarini ixtiyoriy tugatish masalasi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinishi bilan ushbu

---

<sup>1</sup> <https://lex.uz/mact/2006789>

<sup>2</sup> <https://lex.uz/uz/docs/3492199>

hujjatlar tadbirkorlik sub'ektlarining mustaqil ravishda faoliyatni tugatish huquqini belgilaydi.

Bundan tashqari, “Ma’muriy tartib-taomillar to’g’risida”gi Qonuni fuqarolar va yuridik shaxslar, jumladan tadbirkorlar tomonidan davlat organlari qabul qilgan ma’muriy hujjatlardan norozilik bildirish mexanizmini yaratib berdi.

Bu qonunda belgilanishicha, har bir shaxs davlat organining qaroridan yoki harakatidan norozi bo’lgan taqdirda, sudgacha apellyatsiya komissiyasiga shikoyat qilish huquqiga ega.

Apellyatsiya kengashlari tegishliligiga ko’ra respublika darajasidagi davlat organlari va tashkilotlarining hamda ularning Toshkent shahridagi hududiy bo’linmalarining davlat xizmatlarini ko’rsatish bilan bog’liq ma’muriy hujjatlarining qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini sudgacha ko’rib chiquvchi yuridik shaxs maqomiga ega bo’lmagan kollegial organlar hisoblanadi<sup>3</sup>.

Tadbirkorlik sub’ektlarini ixtiyoriy tugatishni sudgacha ko’rib chiqish institutining ahamiyati shundan iboratki, sudgacha ko’rib chiqish tizimi ma’muriy islohotlarning muhim elementi bo’lib, u davlat boshqaruvida samaradorlik, tezkorlik va shaffoflikni ta’minlaydi. Bu jarayonda tadbirkorlik sub’ektlari davlat organlari bilan to’g’ridan-to’g’ri emas, balki institutsional vosita ya’ni, apellyatsiya komissiyasi orqali muloqot qiladi.

Shu o’rinda ta’kidlaganidek, ma’muriy nizolarni sudgacha bosqichda hal etish “davlat xizmatidagi mas’uliyatni oshiradi, sud tizimidagi yukni yengillashtiradi va iqtisodiy faol muhitni yaratadi”<sup>4</sup>

Bundan tashqari yana bir aytilgan fikrga ko’ra, apellyatsiya komissiyalari faoliyati tadbirkorlar va davlat organlari o’rtasida ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi, chunki bu organlar “qonunchilik va tadbirkorlik amaliyoti o’rtasidagi bog’lovchi ko’prik” vazifasini bajaradi<sup>5</sup>

3 Fayziev X. “Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro’yxatidan(qayta davlat ro’yxatidan) o’tkazishda qonunchilik hujjatlariga muvofiq ma’muriy hujjatlarni sudgacha ko’rib chiqish” Ta’lim, tarbiya va innovatsiyalar jurnali 2025.

4 Yuldashev A. “Ma’muriy nizolarni sudgacha hal etish tizimini takomillashtirish masalalari” Toshkent Yurist axborotnomasi 2022.

5 Mirzaev B. “Sudgacha hal etish institutining huquqiy tabiati” Toshkent Iqtisod va huquq 2023.

Apellyatsiya komissiyasining huquqiy maqomi va faoliyatiga e'tiborimizni qaratmoqchi bo'lsak, Adliya vazirligi huzuridagi tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha Apellyatsiya komissiyasining asosiy vazifalari:

- tadbirkorlik sub'ektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish;
- davlat organlari tomonidan qabul qilingan ma'muriy hujjatlar yuzasidan shikoyatlarni ko'rib chiqish;
- tekshiruv natijalari yuzasidan tavsiya va xulosalar berish;
- sudgacha hal etish amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Apellyatsiya komissiyasi 15 ish kuni ichida shikoyatni ko'rib chiqishi va tegishli qaror qabul qilishi shart. Bu norma tadbirkorlar uchun huquqiy kafolat hisoblanadi.

Tadbirkorlik sub'ekti davlat organi yoki uning mansabdori tomonidan qabul qilingan ma'muriy hujjat yoki harakatlardan norozi bo'lganda, u hujjatlar tadbirkorning huquqlariga, erkinliklariga yoki qonuniy manfaatlariga zarar yetkazganda Apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilishi mumkin.

Shikoyatni topshirish elektron shaklda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali va yozma ravishda davlat organiga yoki to'g'ridan-to'g'ri komissiyaga topshirish usullarida amalga oshiriladi.

Komissiya shikoyatni qabul qiladi va ro'yxatga oladi. Ariza formal jihatdan to'g'ri to'ldirilganini tekshiradi. Dalillar o'rganiladi, tegishli davlat organlaridan axborot so'rab olinadi. Arizachi va davlat organi vakillarini zarurat bo'lganda eshitiladi. Huquqiy xulosa tayyorlanadi va qaror qabul qilinadi. Qarorning nusxasi arizachiga va davlat organiga yuboriladi.

Komissiya qaror qabul qilganda ma'muriy hujjatni qonunga muvofiq deb topishi, yoki uni bekor qilib, yangi qaror qabul qilishni davlat organidan talab qilishi, yoki ishni sudga yuborish tavsiyasini berishi mumkin.

Qaror majburiy tavsiyaviy kuchga ega bo‘lib, davlat organi uni bajarishi yoki asosli rad javobi berishga majbur.

Tadbirkorlik sub’ektlarini ixtiyoriy tugatish jarayonida ma’muriy hujjatlarni ko‘rib chiqish va ixtiyoriy tugatishda tadbirkorlik sub’ekti davlat soliq xizmati, mehnat, statistika va boshqa idoralar oldidagi hisob-kitoblarni yakunlaydi. Bu jarayonda davlat organlarining qarorlari ayrim hollarda ortiqcha talablar, kechiktirish yoki huquqiy talqindagi ziddiyatlarga olib kelishi mumkin.

Bunda ta’kidlanganidek, “tugatish jarayonida davlat idoralari o‘rtasidagi ma’lumotlar almashinuvi yetarli darajada avtomatlashtirilmagani sababli tadbirkor ko‘pincha ortiqcha hujjatlar bilan ovora bo‘ladi”<sup>6</sup> deyilganiga sabab bo‘ladi.

Bunday holatlarda tadbirkor apellyatsiya komissiyasiga shikoyat qilishi mumkin. Komissiya ishni sudgacha bosqichda ko‘rib chiqib, qonun buzilishi holatlarini aniqlasa, davlat organiga qarorni qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha tavsiya beradi.

Ushbu mavzuga oid qator olimlar va ilmiy tadqiqotchilar ilmiy jihatdan ishlarni olib borib, tahlillar qilib, o‘z shaxsiy fikr-mulohazalarini bayon qilganlar.

Jumladan, J.Xamdamova o‘z tadqiqotlarida ta’kidlaydiki, ma’muriy hujjatlarni sudgacha ko‘rib chiqish tizimi tadbirkorlik muhitining huquqiy aniqligi va barqarorligini ta’minlaydi. Uning fikricha, “sudgacha apellyatsiya komissiyalari davlat boshqaruvidagi inson omilini kamaytirish va qaror qabul qilishda huquqiy mantiqiylikni kuchaytirish vositasidir”<sup>7</sup>.

Bunga munosabat bildirsak, bu fikr amalda to‘liq o‘z isbotini topmoqda. Xususan, Adliya vazirligi huzuridagi apellyatsiya komissiyasi faoliyati misolida ko‘rish mumkinki, tadbirkorning shikoyati odatda 10–15 kun ichida hal etiladi, sudda esa bu jarayon oylab cho‘zilishi mumkin edi. Demak, komissiya instituti huquqiy tizimda samarali filtr vazifasini bajaradi.

<sup>6</sup>Turdiev Sh. “Ma’muriy jarayonlarda shaffoflik va davlat javobgarligi” O‘quv qo‘llanma. 2021.

<sup>7</sup>Xamdamova J. “Tadbirkorlik faoliyatida ma’muriy nazorat va huquqiy kafolatlar” Toshkent Avtoreferat 2022.

Sudgacha bunday apellyatsiya tizimini yaratilishi bo'yicha A.Ikramovning fikricha, "Sudgacha shikoyat tizimi – bu sudlar faoliyatiga yordamchi emas, balki mustaqil huquqni muhofaza qiluvchi institutdir"<sup>8</sup> deb ta'kidlaydi. Uningcha, komissiya qarorlari sudda asosiy dalil sifatida qabul qilinishi kerak.

Bu fikr qonunchilik nuqtai nazaridan chegaralangan. Chunki, komissiya qarorlari tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, ular sud hukmining o'rnini bosmaydi. Ammo, agar komissiya qarorlari huquqiy kuchni oshiruvchi qo'shimcha kafolat bilan mustahkamlansa, tadbirkorlar sudga murojaat qilish zaruratisiz adolatga yeta oladi degan munosabatimizni bildirishni lozim topdik.

Sh.Turdiyev o'z asarida "ma'muriy hujjatlarni ko'rib chiqish jarayonida shaffoflikni ta'minlash va davlat mansabdorlarining mas'uliyatini oshirish sudgacha bosqichning asosiy vazifasidir"<sup>9</sup> deb yozadi.

Bu juda dolzarb nuqta. Amalda ko'p hollarda tadbirkorning shikoyati davlat idorasining o'zi tomonidan qayta ko'rib chiqiladi va bu holat manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin. Shuning uchun apellyatsiya komissiyalarining mustaqilligi va jamoatchilik nazorati muhim ahamiyatga ega.

Shular qatorida o'zining tadqiqot ishida D.Alimov shunday xulosaga keladiki, "Komissiyalar faoliyatida raqamli mexanizmlar joriy etilmas ekan, ularning samaradorligi cheklangan bo'lib qolaveradi"<sup>10</sup>.

Bu fikr esa, amalda asoslidir. Chunki, hozirda elektron shikoyat platformalari joriy etilgan bo'lsa-da, barcha hududlarda bir xil darajada faol emas. Shu bois, elektron axborot tizimlarini yagona davlat reestri bilan integratsiya qilish komissiya faoliyati samaradorligini oshiradi.

Tadbirkorlik sub'ektlarini ixtiyoriy tugatish jarayonida ma'muriy hujjatlarni sudgacha ko'rib chiqish bo'yicha quyida amaliy misollar keltiramiz, bu esa, mavzuning mazmun-mohiyatini yanada boyitadi:

<sup>8</sup> Ikramov A. "Sudgacha shikoyat qilish tizimining huquqiy asoslari". Toshkent Yurist axborotnomasi 2023.

<sup>9</sup> Turdiyev Sh. "Ma'muriy jarayonlarda shaffoflik va davlat javobgarligi" O'quv qo'llanma. 2021.

<sup>10</sup> Alimov D. "Sifrovizatsiya v administrativnykh protsessax" Toshkent Avtoreferat 2024.

**1-мисол.** *Davlat ro'yxatidan chiqarish rad etilganligi holatiga to'xtalmoqchi bo'lsak, MChJ (masalan, "Sohibjon treyd" MChJ) faoliyatini ixtiyoriy tugatish uchun Davlat xizmatlari markaziga ariza taqdim etadi. Lekin DXM xato sababdan — qarzdorlik mavjud, deb hisoblab, tugatishni rad etuvchi ma'muriy hujjat qabul qiladi. Bu holatda ishni sudgacha ko'rib chiqish tartibida tadbirkor ushbu ma'muriy hujjatni Adliya vazirligi huzuridagi Apellyatsiya komissiyasiga 15 ish kuni ichida shikoyat qiladi. Komissiya hujjat asosli yoki asossiz qabul qilinganini tekshiradi, soliq organidan ma'lumot so'raydi, agar qarzdorlik yo'qligi aniqlansa — DXM qarori bekor qilinadi va tugatish jarayoni qayta tiklanadi. Bu holat tadbirkorlar uchun sudgacha huquqni tiklash imkoniyatini yaratadi va davlat idoralari xatosini sudsiz hal qilish imkonini beradi. Bu "Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi" da ko'zda tutilgan sudgacha apellyatsiya mexanizmining amaliyotdagi namunasi hisoblanadi.*

**2-мисол.** *Soliq qo'mitasi ma'lumotlarini bahs qilish holatida tadbirkorlik sub'ekti ixtiyoriy tugatish uchun murojaat qilgan. Lekin Davlat soliq qo'mitasi "soliq qarzi bor" deb ma'lumot taqdim etgan. Tadbirkor bu ma'lumot xato ekanini isbotlovchi hujjatlar bilan shikoyat beradi. Sudgacha ko'rib chiqish tartibi bo'yicha Apellyatsiya komissiyasi tadbirkorning shikoyatini 15 ish kunida ko'rib chiqadi, soliq ma'lumotlarini qayta tekshiradi. Natijada ma'lum bo'ladiki, qarz to'langan, lekin ma'lumotlar bazasida yangilanmagan. Komissiya DSQ qarorini bekor qilib, tugatishga ruxsat beradi. Bu misol ma'muriy hujjatlardagi texnik xatolarni sudgacha hal qilishning samarali yo'lini ko'rsatadi. Sudgacha apellyatsiya instituti ma'muriy adolatni ta'minlaydi va tadbirkorning vaqt hamda mablag'ini tejaydi.*

**3-мисол.** *Davlat ro'yxatidan chiqarishda Bandlik va mehnat munosabatlari organining xulosasi holati bo'yicha tadbirkorlik sub'ekti tugatish jarayonida xodimlar bilan hisob-kitobni to'liq bajarganini ko'rsatgan. Lekin hududiy Bandlik organi "ishchi haqi bo'yicha da'vo mavjud" deb rad etuvchi xulosa bergan. Tadbirkor Apellyatsiya komissiyasiga shikoyat beradi. Komissiya xodimlar da'volarini tekshirib, mehnat inspeksiyasi ma'lumotlarini so'rab,*



*ishchi haqi bo'yicha bahs yo'qligini aniqlaydi va rad qarorini bekor qiladi. Bu holat ma'muriy hujjatlarni sudsiz, tezkor va adolatli tarzda qayta ko'rib chiqish mexanizmining ishlashini ko'rsatadi. Buning orqali tadbirkorlik muhitida huquqiy barqarorlik va ishonch ta'minlanadi.*

Shu o'rinda ushbu tizimni xorijiy tajriba bilan taqqoslab ko'rishimiz maqsadga muvofiqdir. Bunda Yevropa Ittifoqi davlatlariga e'tiborimizni qaratsak, ularda sudgacha shikoyat qilish tizimi davlat boshqaruvining ajralmas qismi hisoblanadi. Masalan, Germaniyada "Bundesverwaltungsgericht" tizimida ma'muriy nizolarning 60 foizi sudga yetmasdan hal etiladi.

Koreya Respublikasida "Administrative Appeals Commission" orqali tadbirkorlar davlat idoralari qarorlaridan shikoyat qilish imkoniga ega. Komissiya qarorlari majburiy kuchga ega va ular bajarilmasa, davlat organiga nisbatan intizomiy javobgarlik qo'llaniladi.

Bu tajribalar O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, komissiya qarorlarining huquqiy kuchini oshirishda foyda berishi mumkin.

Endilikda, bu boradagi amaliyotdagi muammolarni gapirsak, bunda birinchidan, ma'lumotlar almashinuvi yetarli darajada emasligini uchratish mumkin. Ya'ni, komissiya va soliq organlari o'rtasida integratsiya to'liq yo'lga qo'yilmagan. Ikkinchidan, qarorlarni ijro etish mexanizmi zaifligi shundaki, komissiya qarorlari ba'zi hollarda bajarilmasdan qolishi sezilarlidir. Uchinchidan, bu yo'nalishda tadbirkorlarning xabardorligi past darajada. Ko'p tadbirkorlar sudgacha shikoyat berish huquqidan bexabar ekanligini amaliyotni o'zi ko'rsatmoqda.

Qayd etilgan muammolarning yechimlari sifatida komissiya qarorlariga majburiy ijro kuchi berish, har bir hududda "Tadbirkorning huquqiy himoya kuni" tadbirini o'tkazish va barcha murojaatlarni yagona onlayn platformada ro'yxatdan o'tkazish taklif etiladi.

Umuman xulosa qilib olganda, sudgacha apellyatsiya komissiyalari faoliyati tadbirkorlik sub'ektlarini ixtiyoriy tugatish jarayonidagi ma'muriy qarorlarni tez va samarali qayta ko'rib chiqish imkonini yaratadi. Ilmiy fikrlar tahlili shuni ko'rsatadiki,

bu institut huquqiy tizimda o'ziga xos "bufer zona" bo'lib, davlat boshqaruvida mas'uliyat va shaffoflikni ta'minlaydi.

Biroq, komissiya qarorlarining huquqiy kuchi va ijrosini ta'minlash, ularning mustaqilligini konstitutsiyaviy kafolatlar bilan mustahkamlash kelgusidagi asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Shular bilan birga Apellyatsiya komissiyalariga chiqarilgan qarorlarning ijro etilishini majburiy tartibga kiritish, komissiya faoliyatini to'liq raqamlashtirish va "E-appeal" milliy platformasini joriy etish, sudlar bilan ma'lumotlar integratsiyasini kuchaytirish, ilmiy hamjamiyat ishtirokida apellyatsiya amaliyotining tahliliy hisobotlarini yillik nashr qilib borish to'g'risidagi takliflar ham havola etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.  
<https://lex.uz/mact/2006789>
2. "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni.  
<https://lex.uz/uz/docs/3492199>
3. Fayziev X. "Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan(qayta davlat ro'yxatidan) o'tkazishda qonunchilik hujjatlariga muvofiq ma'muriy hujjatlarni sudgacha ko'rib chiqish" Ta'lim, tarbiya va innovatsiyalar jurnali 2025.
4. Yuldashev A. "Ma'muriy nizolarni sudgacha hal etish tizimini takomillashtirish masalalari" Toshkent Yurist axborotnomasi 2022.
5. Mirzaev B. "Sudgacha hal etish institutining huquqiy tabiati" Toshkent Iqtisod va huquq 2023.
6. Xamdamova J. "Tadbirkorlik faoliyatida ma'muriy nazorat va huquqiy kafolatlar" Toshkent Avtoreferat 2022.
7. Ikramov A. "Sudgacha shikoyat qilish tizimining huquqiy asoslari". Toshkent Yurist axborotnomasi 2023.

8. Turdiev Sh. “Ma’muriy jarayonlarda shaffoflik va davlat javobgarligi” O‘quv qo‘llanma. 2021.
9. Alimov D. “Sifrovizatsiya v administrativnykh protsessax” Toshkent Avtoreferat 2024.